



## **O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING FARMOYISHI**

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2021 - yil 1 - dekabr

79-8-0-F/21

Surxondaryo viloyati hokimligi

Viloyatda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kunini munosib kutib olish hamda uni umumxalq bayrami sifatida keng nishonlash, xalq va armiya yakdilligini yanada mustahkamlash, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, shuningdek, jahonda milliy Qurolli Kuchlarimiz nufuzining yanada oshishini ta‘minlash maqsadida:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 22-noyabrdagi F–4-son farmoyishi rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Viloyatda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni yuqori saviyada o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh (keyingi o‘rinlarda – Ishchi guruh) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Viloyatda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur) 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat hokimining o‘rinbosarlari J.To‘rayev, I.Saparov, viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov:

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish ishlari va Dasturda belgilangan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi yuzasidan har bir hudud, boshqarma va idoralar faoliyatining muvofiqlashtirilishini ta‘minlasin;

Joylarda taniqli olimlar, ijodkor ziyolilar, sportchilar, harbiy xizmatchilar va jamoat tashkilotlari vakillari bilan aholining keng qatlamlari o‘rtasida madaniy-ma‘rifiy, harbiy-vatanparvarlik va sport tadbirlari o‘tkazilishini tashkillashtirsin;

Termiz shahrida o‘tkaziladigan bayram dasturlarini tayyorlashga ommaviy tomoshalar

bo'yicha yuksak mahorat va tajribaga ega bo'lgan ijodkor ziyolilar, madaniyat va san'at arboblari, iste'dodli yosh ijrochilardan iborat ijodiy guruhlarni shartnoma asosida jalb etish choralarini ko'rsin.

4. Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari (F.Mamanov), viloyat hokimining o'rinbosarlari (J.To'rayev, I.Saparov), viloyat hokimligi guruh rahbari (A.Karimov), viloyat Madaniyat boshqarmasi (Q.Amanqulov) hamda Termiz shahar va tumanlar hokimliklari birgalikda:

ko'chalar, maydonlar va tantanali tadbirlar o'tkaziladigan joylarning O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan plakat va stendlar bilan bayramona bezatilishi, shuningdek, madaniyat va istirohat bog'larida mavzuga doir ko'rgazma va ekspozitsiyalar tayyorlanishini tashkillashtirsin;

viloyat miqyosida O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligiga bag'ishlangan tantanali tadbirlar, konsert dasturlari va boshqa bayram tadbirlarini o'tkazish jadvalini ishlab chiqsin hamda o'tkazilayotgan tadbirlarda aholining barcha qatlamlari vakillari, jumladan, yoshlar, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ishtirokini ta'minlasin;

harbiy xizmatchilar bilan aholi o'rtasida mamlakatimiz har bir hududining o'ziga xos xususiyatlari, odatlari, qadriyatlari, tarixi yanada mustahkamlanishiga qaratilgan turli sport musobaqalari va ijodiy tanlovlar o'tkazilishini hamda viloyat hududida joylashgan muzeylarga ekskursiyalarni tashkil etsin;

davlat mukofotlari bilan taqdirlanganlar, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'z kasbining ustasi unvoni uchun o'tkazilgan ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'oliblari hamda jangovar-xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan harbiy xizmatchilarni qutlash bo'yicha tantanali bayram tadbirlarini o'tkazsin;

harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan tadbirlar o'tkazishni davom ettirsin.

5. Viloyat Ichki ishlar boshqarmasi (A.Ismoilov) Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi (Sh.Saidov) bilan birgalikda tantanali tadbirlar o'tkaziladigan joylarda jamoat tartibi va xavfsizligini ta'minlasin.

6. Viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar hududiy boshqarmasi (Z.To'rayev), viloyat teleradiokompaniyasi (B.Mingboyev), "Surxon tongi" va "Zarya Surxana" gazetalari birlashgan tahririyati DK (S.Norqobilov)ga bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali aholi o'rtasida ushbu farmoyishning maqsad va vazifalarini muntazam ravishda, har tomonlama yoritib borish tavsiya etilsin.

7. Mazkur farmoyishning ijrosini nazorat qilishni o'z zimmamda qoldiraman.

Surxondaryo viloyati hokimi



Bobolov T.A.

Сурхондарё вилоят ҳокимининг  
2021 йил 1 декабрдаги  
79-8-0-F/21-сон фармойишига  
1-илова

**Viloyatda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining  
30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada  
o‘tkazish bo‘yicha ishchi guruh**

**TARKIBI**

- |     |                  |   |
|-----|------------------|---|
| 1.  | T.Bobolov        | - viloyat hokimi, Ishchi guruh rahbari  |
| 2.  | I.Saparov        | - viloyat hokimining o‘rinbosari, Ishchi guruh rahbarining o‘rinbosari  |
| 3.  | J.To‘rayev       | - viloyat hokimining o‘rinbosari, Ishchi guruh rahbarining o‘rinbosari  |
| 4.  | F.Tairov         | - viloyat hokimining o‘rinbosari  |
| 5.  | A.Karimov        | - viloyat hokimligi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish, harbiy safarbarlik va favqulodda vaziyatlar masalalari bo‘yicha guruh rahbari |
| 6.  | P.Sativaldiyev   | - Janubiy operativ qo‘mondonligi boshlig‘i  |
| 7.  | A.Eshmatov       | - Davlat xavfsizlik xizmati Surxondaryo viloyati bo‘yicha boshqarmasi boshlig‘i   |
| 8.  | Sh.Saidov        | - Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi boshlig‘i   |
| 9.  | R.Kaxarov        | - DXX CHQ 9112-harbiy qism komandiri  |
| 10. | I.Qambarov       | - viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi boshlig‘i   |
| 11. | A.Ismoilov       | - viloyat Ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘i  |
| 12. | N.Kadirov        | - viloyat Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi boshlig‘i   |
| 13. | Q.Umarov         | - viloyat Bojxona boshqarmasi boshlig‘i   |
| 14. | S.Shaymardonov   | - O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining hududiy boshqarmasi boshlig‘i                               |
| 15. | S.Hamidova       | - viloyat Xalq ta’limi boshqarmasi boshlig‘i  |
| 16. | R.Salomova       | - viloyat Kasbiy ta’limni rivojlantirish va muvofiqlashtirish boshqarmasi boshlig‘i   |
| 17. | K.Abduvohidov    | - viloyat Sog‘liqni saqlash boshqarmasi boshlig‘i   |
| 18. | S.Ataqulov       | - “O‘zbekkino” MA viloyat bo‘limi boshlig‘i   |
| 19. | Q.Amonqulov      | - viloyat Madaniyat boshqarmasi boshlig‘i   |
| 20. | Z.To‘rayev       | - viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi boshlig‘i  |
| 21. | J.Choriyev       | - Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi boshlig‘i   |
| 22. | N.Rahmatullayeva | - Respublika Ma’naviyat va ma’rifat markazi viloyat bo‘limi rahbari   |
| 23. | M.Ollomurodov    | - O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi rahbari   |
| 24. | A.Axmedov        | - viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi raisi  |
| 25. | B.Mingboyev      | - viloyat teleradiokompaniyasi direktori  |

- |     |                         |   |
|-----|-------------------------|---|
| 26. | M.Abdurahmonov          | - O'zbekiston Jurnalistlar ijodiy uyushmasi viloyat bo'limi rahbari         |
| 27. | Z.Yusupov               | - Mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat kengashi raisi |
| 28. | <i>Lavozimiga ko'ra</i> | - viloyatdagi oliy ta'lim muassasalari rektorlari                           |
| 29. | <i>Lavozimiga ko'ra</i> | - Termiz shahar va tumanlar hokimlari                                       |

***Izoh:*** *Ishchi guruh a'zolari boshqa ishga o'tganda, uning tarkibiga ushbu lavozimga yangidan tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarni bajarish yuklangan shaxslar kiritiladi.*

Сурхондарё вилоят ҳокимининг  
2021 йил 1 декабрдаги  
79-8-0-F/21-сон фармойишига  
2-илова

**Вилоятда О‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi va Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko‘rish hamda uni o‘tkazish bo‘yicha**  
**CHORA-TADBIRLAR DASTURI**

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddatlari	Mas‘ul ijrochilar
<b>I. Tashkiliy-amaliy tadbirlar</b>			
1.	Termiz shahar va tumanlarda O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlashga tayyorgarlik ko‘rish va o‘tkazish bo‘yicha tashkiliy qo‘mtalarni tuzish.	2021-yil 1-dekabr qadar	Termiz shahar va tumanlar hokimliklari, viloyat hududidagi harbiy qism va muassasalar
2.	Viloyat, Termiz shahar va tumanlarda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan ma‘naviy-ma‘rifiy va madaniy tadbirlarni o‘tkazish uchun Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi viloyat bo‘limi, davlat va jamoat tashkilotlari, taniqli fan arboblari, ijodkor ziyolilar, madaniyat, san‘at va sport vakillaridan iborat targ‘ibot-tashviqot va ijodiy guruhlarini tashkil etish.	2021-yil 5-dekabr qadar	Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (I.Saparov, J.To‘rayev, F.Tairov), Ma‘naviyat va ma‘rifat markazi viloyat bo‘limi, viloyat Madaniyat boshqarmasi, Yozuvchilar uyushmasi viloyat bo‘limi, Jurnalistlar uyushmasi viloyat bo‘limi, “O‘zbekkino” MA viloyat bo‘limi, “O‘zbekkonsert” DM viloyat bo‘limi, Mudofaa vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi viloyat bo‘limi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
3.	Ko‘chalar, maydonlar va tantanali tadbirlar o‘tkaziladigan joylarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan plakat va stendlar bilan bayramona bezatish, shuningdek, madaniyat va istirohat bog‘larida “Xalq va armiya – bir tanu bir jondir!” umumiy shiori ostida mavzuga doir ko‘rgazma va ekspozitsiyalar tayyorlash.	2021-yil 1-dekabr qadar	Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (J.To‘rayev, I.Saparov), “Tasviriy oyina” ijodiy uyushmasi viloyat bo‘limi, viloyat hududidagi harbiy qism va muassasalar, Termiz shahar va tumanlar hokimliklarida tuzilgan hududiy tashkiliy qo‘mtalar
4.	Termiz shahridagi San‘at saroyining konsert zali, sahnasi, foyyesi hamda ularga tutash hududlarni bayramona bezash, shuningdek, taniqli estrada, teatr, kino artistlari, ijodiy jamoalar ishtirokida bayram konsert dasturlarini tayyorlash.	Tantanali tadbirlarni o‘tkazish davrida	Viloyat hokimining o‘rinbosari J.To‘rayev, viloyat Madaniyat boshqarmasi, Termiz shahar hokimligi, “O‘zbekkonsert” DM viloyat bo‘limi, Janubiy operativ qo‘mondonligi
5.	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag‘ishlangan tantanali bayram tadbirlarini o‘tkazish, davlat mukofotlari bilan taqdirlangan va xizmat faoliyatida yuqori natijalarga erishgan harbiy xizmatchilarni taqdirlash, shu jumladan: viloyat, Termiz shahar va tumanlarda - tegishli madaniyat muassasalari va konsert zallarida; viloyat boshqarma, idora va tashkilotlarning markaziy apparatlarida.	2022-yil 13-yanvar  2022-yil 11-14-yanvar kunlari Alohida reja bo‘yicha	Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (I.Saparov, J.To‘rayev), viloyat hokimligi guruh rahbarlari (A.Karimov, O.Ro‘ziyev), Janubiy operativ qo‘mondonligi, DXX viloyat boshqarmasi, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Ichki ishlar boshqarmasi, Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, “O‘zbekkino” MA viloyat bo‘limi, “O‘zbekkonsert” DM viloyat bo‘limi, jamoat tashkilotlari, harbiy qismlar, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
6.	Gulchambarlar qo‘yish marosimlarini o‘tkazish: Termiz shahridagi “Xotira” maydoniga – viloyat hokimligi, Janubiy operativ qo‘mondonligi, viloyat IIB, DXX viloyat boshqarmasi, FVB, Bojxona boshqarmasi, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi rahbariyati tomonidan; tumanlarda – tuman markazlaridagi tarixiy joylarga Termiz shahar va tumanlar hokimliklari, harbiy qismlar, davlat va jamoat tashkilotlari vakillari hamda yoshlar ishtirokida.	2022-yil 14-yanvarga qadar  Alohida reja bo‘yicha	Viloyat hokimining o‘rinbosarlari (I.Saparov, J.To‘rayev), viloyat hokimligi guruh rahbarlari (A.Karimov, O.Ro‘ziyev), Janubiy operativ qo‘mondonligi, viloyat IIB, DXX viloyat boshqarmasi, 9112-harbiy qism, FVB, Bojxona boshqarmasi, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari, jamoat tashkilotlari, harbiy qismlar
7.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti nomidan kontrakt bo‘yicha harbiy xizmatchilar, Qurolli Kuchlar ishchi va xizmatchilariga “O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlariga 30 yil” esdalik nishonini tantanali ravishda topshirish.		Viloyat hokimligi guruh rahbarlari (O.Ro‘ziyev, A.Karimov), Janubiy operativ qo‘mondonligi, viloyat IIB, DXX viloyat boshqarmasi, 9112-harbiy qism, FVB, Bojxona boshqarmasi, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi
<b>II. Axborot-tashviqot yo‘nalishidagi tadbirlar</b>			

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
8.	O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini himoya qilishda mardlaracha halok bo'lgan harbiy xizmatchilar nomini abadiylashtirish maqsadida ular istiqomat qilgan mahallalarga, ko'chalarga ushbu harbiy xizmatchilarning nomlarini berish masalasini belgilangan tartibda ko'rib chiqish.	2022-yil 14-yanvargacha	Viloyat hokimining o'rinbosarlari (I.Saparov, J.To'rayev), viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Janubiy operativ qo'mondonligi, Mudofaa ishlari boshqarmasi, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
9.	Qurolli Kuchlarda amalga oshirilayotgan islohotlarni va erishilgan yutuqlarni, harbiy xizmatchilarning ijtimoiy himoyasi, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlikni yaxshilash, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash masalalari va armiyaning nufuzini oshirishga yo'naltirilgan boshqa qator sohalarni yorituvchi videoroliklar turkumini yaratish hamda viloyat teleradiokompaniyasi telekanallari va katta o'lchamli ekranlarda (ko'cha pannolarida) namoyish etish.	2022-yil 20-yanvargacha	Viloyat hokimining o'rinbosarlari (I.Saparov, J.To'rayev), viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Janubiy operativ qo'mondonligi, Mudofaa ishlari boshqarmasi, DXX viloyat boshqarmasi, IIB, FVB, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
<b>III. Aholi o'rtasida olib boriladigan harbiy-vatanparvarlik va ma'naviy-axloqiy tadbirlar hamda targ'ibot-tushuntirish ishlari</b>			
<b>a) Ta'lim muassasalarida o'tkaziladigan tadbirlar</b>			
10.	Termiz shahrida hamda chekka va olis hududlarda aholi va yoshlar uchun mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat Kengashi huzuridagi avto, motosport klublari hamda avia va raketa modellashtirish to'garaklarining ko'rgazmali namoyishlarini tashkil qilish va o'tkazish.	2021-yil 10-dekabr-dan-2022-yil 10-yanvargacha	Viloyat hokimining o'rinbosarlari (I.Saparov, J.To'rayev), mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat Kengashi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
<b>b) Jamoat joylari, mahalla, muassasa va tashkilotlarda o'tkaziladigan tadbirlar</b>			
11.	Harbiy xizmatchi va yoshlarning ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirishga munosib hissa qo'shgan harbiy xizmatchilar hamda davlat va jamoat tashkilotlari vakillariga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar alochisi" ko'krak nishonini tantanali topshirish.	2022-yil 14-yanvargacha	Viloyat hokimining o'rinbosari I.Saparov, viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Janubiy operativ qo'mondonligi, DXX viloyat boshqarmasi, IIB, FVB, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
12.	Viloyatning har bir hududining o'ziga xos xususiyatlari, odatlari, qadriyatlari, tarixi va madaniyatini inobatga olgan holda armiya va xalq yakdilligi yanada mustahkamlanishiga qaratilgan harbiy xizmatchilar bilan aholi o'rtasida "Amir Temur o'g'lonlari" va "Jaloliddin Manguberdi vorislari" ko'krak nishonlarini tantanali topshirish.	2021-yil 15-dekabr-dan-15-yanvargacha	Viloyat hokimining o'rinbosari I.Saparov, viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Janubiy operativ qo'mondonligi, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
13.	Termiz shahrida yoshlarni jalb qilib, fan, ta'lim, madaniyat, san'at va ijtimoiy soha namoyandalari ishtirokida "Vatanga xizmat – oliy fazilat" mavzusidagi seminarlarni tashkil etish va o'tkazish.	2021-yil 15-dekabr-dan-15-yanvargacha	Viloyat hokimining o'rinbosarlari (I.Saparov, J.To'rayev), Termiz shahar hokimligi
14.	Harbiy qism va muassasalar, ta'lim muassasalar va mahallalarda aholining keng qatlamlarini jalb etgan holda O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganligining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kuniga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy va madaniy tadbirlarni o'tkazish.	2021-yil dekabr- yanvar	Viloyat hokimining o'rinbosarlari (F.Tairov, I.Saparov, J.To'rayev) Janubiy operativ qo'mondonligi, Mudofaa ishlari boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, Madaniyat boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
<b>IV. Madaniy-ma'rifiy va sport yo'nalishidagi tadbirlar</b>			
15.	Harbiy xizmatchilar bilan aholi o'rtasida sportning ommaviy turlari (futbol, basketbol, voleybol, regbi, tosh ko'tarish va boshqalar) bo'yicha musobaqalarni tashkil etish va o'tkazish.	2021-yil noyabr 2022-yil davomida	Viloyat hokimining o'rinbosarlari (J.To'rayev, I.Saparov), viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Turizm va sport bosh boshqarmasi, Janubiy operativ qo'mondonligi, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
16.	Surxondaryo viloyatida o'zbek milliy sport o'yinlarini harbiy xizmatchilar va aholi orasida keng targ'ib etish maqsadida ko'pkari milliy sport o'yinlari bo'yicha Qurolli Kuchlar birinchiligini tashkil etish va o'tkazish. Mazkur ot sporti o'yinlarida mahalliy aholi ishtirokini ta'minlash.	2022-yil 30-maygacha	Viloyat hokimining o'rinbosari J.To'rayev, Turizm va sport bosh boshqarmasi, Madaniyat boshqarmasi, Janubiy operativ qo'mondonligi, DXX viloyat boshqarmasi, IIB, FVB, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, Yoshlar ishlari agentligi viloyat boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
17.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'z kasbining ustasi unvoni uchun ko'rik-tanlovining respublika bosqichi g'oliblarini qutlash va rag'batlantirish tadbirlarini o'tkazish.	2022-yil 11-14-yanvar kunlari	Viloyat hokimining o'rinbosari J.To'rayev, viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Janubiy operativ qo'mondonligi, DXX viloyat boshqarmasi, IIB, FVB, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, "O'zbekkonsert" DM viloyat bo'limi, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
<b>V. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolarini ijtimoiy himoya qilishga yo'naltirilgan tadbirlar</b>			
18.	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining 30 yilligi hamda Vatan himoyachilari kunini nishonlash arafasida yangi ijtimoiy va maishiy obyektning tantanali ochilish marosimlarini tashkil etish hamda ularni respublika va mahalliy ommaviy axborot vositalarida keng yoritish.	2021-yil dekabr 2022-yil yanvar	Viloyat hokimining o'rinbosari J.To'rayev, viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Janubiy operativ qo'mondonligi, DXX viloyat boshqarmasi, IIB, FVB, 9112-harbiy qism, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, Bojxona boshqarmasi, viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar hududiy boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari

T/r	Tadbirlar nomi	Ijro muddatlari	Mas'ul ijrochilar
19.	Harbiy xizmatchilar va harbiy pensionerlarning oila a'zolarini ish bilan ta'minlash uchun ish joylarini yaratish bo'yicha manzilli ishlarni amalga oshirish.	2022-yil davomida	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Mamanov, Bandlik bosh boshqarmasi, Harbiy-ma'muriy sektor a'zolari, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, Janubiy operativ qo'mondonligi, Mudofaa ishlari boshqarmasi, DXX viloyat boshqarmasi, 9112-harbiy qism, IIB, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, FVB, viloyat Bojxona boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
20.	Fuqarolarni ish bilan ta'minlash bo'yicha viloyat komissiyasi, Mudofaa vazirligi huzuridagi jamoatchilik kengashi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi rahbarlarining aholi keng qatlamlari bilan "Armiyada xizmatni o'tab bo'lgan fuqarolarni ish bilan ta'minlash tizimi faoliyatining samaradorligi" mavzusida brifinglarni tashkil etish va o'tkazish.	2021-yil 15-dekabr 2022-yil 15-yanvargacha	Viloyat hokimining birinchi o'rinbosari F.Tairov, Bandlik bosh boshqarmasi, viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar hududiy boshqarmasi, viloyat teleradiokompaniyasi, Yoshlar ittifoqi viloyat Kengashi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
21.	"Xalq bilan ochiq muloqot" aksiyasi doirasida faoliyat sohasida va ijtimoiy himoyani ta'minlash yuzasidan fuqarolarni qiziqtirgan (muammoli) masalalar bo'yicha mudofaa vazirining o'rinbosarlari va harbiy okrug qo'shinlari qo'mondonlarining sayyor qabullarini tashkil etish.	2021-yil noyabr 2022-yil yanvar	Viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Janubiy operativ qo'mondonligi, Mudofaa ishlari boshqarmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
22.	Termiz shahrida O'zbekiston Respublikasining suvereniteti va mustaqilligini himoya qilish bo'yicha xizmat majburiyatini bajarish vaqtida halok bo'lgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari uchun madaniy-hordiq tadbirlarini o'tkazish, shuningdek, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish.	2021-yil dekabr 2022-yil davomida	Viloyat hokimining o'rinbosari J.To'rayev, viloyat hokimligi guruh rahbari A.Karimov, Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, Janubiy operativ qo'mondonligi, Mudofaa ishlari boshqarmasi, DXX viloyat boshqarmasi, 9112 harbiy qism, IIB, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, FVB, viloyat Bojxona boshqarmasi, viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
23.	Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari, mehnat fronti faxriylari, mustaqillik yillarida o'z burchini bajarish chog'ida halok bo'lgan harbiy xizmatchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining ro'yxatiga aniqlik kiritish, ularga moddiy va ma'naviy yordam ko'rsatish maqsadida boshqarmalar, idoralar va harbiy qismlarni birlashtirish.	2021-yil dekabr 2022-yil yanvar	Janubiy operativ qo'mondonligi, Mudofaa ishlari boshqarmasi, DXX viloyat boshqarmasi, 9112 harbiy qism, IIB, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, FVB, viloyat Bojxona boshqarmasi, mudofaaga ko'maklashuvchi "Vatanparvar" tashkiloti viloyat Kengashi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari
24.	Yolg'iz va kam ta'minlangan Ikkinchi jahon urushi qatnashchilarining har tomonlama ijtimoiy muhofazasini ta'minlash, ularning turar joyi va uy xo'jaliklarini ta'mirlash ishlariga yordam berish.	2021-yil dekabr 2022-yil yanvar	Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash boshqarmasi, Janubiy operativ qo'mondonligi, Mudofaa ishlari boshqarmasi, DXX viloyat boshqarmasi, 9112 harbiy qism, IIB, Milliy gvardiya viloyat boshqarmasi, FVB, viloyat Bojxona boshqarmasi, viloyat Kasaba uyushmalari tashkilotlari birlashmasi, Termiz shahar va tumanlar hokimliklari

**Izoh:** Hududlarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiy qismi bo'lgan harbiy tuzilmalarning jangovar-xizmat faoliyatini inobatga olgan holda Tadbirlar dasturiga o'zgartirishlar kiritilishi mumkin.